

**INKLYUZIV TA'LIMDA RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN
BOLALARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTS OF CHILDREN
WITH MENTAL DELAYS IN INCLUSIVE EDUCATION**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim va Maxsus pedagogika
fakulteti Maxsus pedagogika:logopediya
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Abduhalimova Mohlaroyim*

Annotatsiya. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning kelib chiqishi, turlari, ularning ta'lim olishi, ular ustida olib boriladigan korreksion jarayonlar va jamiyatga moslashtirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar. Tafakkur, intellekt, rivojlanish, inklyuziv ta'lim, korreksiya, ruhiy rivojlanishi sustlashganlik, hissiy, aqliy, irodaviy, individuallik, idrok, bilish faoliyati, maxsus pedagogika, aqli zaiflik, ta'lim-tarbiya.

Abstract. The article discusses the origin and types of children with mental retardation, their education, correctional processes carried out on them, and their adaptation to society.

Keywords. Thinking, intellect, development, inclusive education, correction, mentally retarded, emotional, mental, retardation, education.

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi va huquqiy asoslari
2. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tushunchasi

"Inklyuziv" so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib "Uyg'unlashish" "Hamkorlikdagi ta'lim" degan ma'nolarni bildiradi. Inklyuziv ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar, eng samarali ta'lim deb tan olingan. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus pedagoglar tomonidan maxsus metodlarni qo'llash orqali to'siqsiz ta'lim muhitini yaratish, ularni jamiyatga integratsiya qilishdan iborat.

Inklyuziv ta'limning maktablarda 2ta shakli mavjud. Ular: 1.Inklyuziv ta'lim sinflari 2. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflari. Har ikki shaklda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay muhitda mavjud.

1. Inklyuziv ta'lim sinflari- maktabning bir sinfida 2 yoki 3ta maxsus ehtiyojli bola

va sogʻlom bolalarning taʼlim olishi. Inklyuziv taʼlim sinfiga maxsus ehtiyojli bolalar kasallik turiga va darajasiga qarab olinadi.

2. Boshlangʻich tayanch korreksion sinflari-maktabda alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlangʻich sinf. Bunday sinflarda bola soni 8, 12tadan oshmasligi kerak.

Inklyuziv taʼlim Oʻzbekistonda 2014-yil mart oyidan boshlab joriy etildi.

Xalq taʼlimi vazirligi, Ijtimoiy moslashuv markazi, Yevropa Ittifoqi hamkorligida respublikaning 5ta viloyatidagi 15ta maktabda 800nafardan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv sinflarda taʼlim olmoqdalar.

Inklyuziv taʼlim jahon miqyosidagi taʼlim hisoblanib, uning tashkil etilish tartibi va olib borilishi qonunda belgilab qoʻyilgan. Shu jumladan Oʻzbekistonda ham inklyuziv taʼlim oʻz huquqiy asoslariga ega.

Nogironlarni umumtaʼlim tizimida oʻqitish masalalarigaveʼtibor berish Respublikamizda 1996-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, Respublika taʼlim markazi va YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari oʻtkazilishi bilan amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab inklyuziv taʼlimni amalga oshirilishi uchun huquqiy va amaliy harakatlar boshlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori tasdiqlandi. Bu qaror 2020-yil 13-oktyabrda tasdiqlangan boʻlib PQ-4860-son deb yuritiladi (<http://lex.uz/docs/-5044711>).

Bundan tashqari "Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 138-sonli qarorda ham inklyuziv taʼlimning huquqiy asoslari belgilab qoʻyilgan (<http://lex.uz/docs/-5679836>).

Yana inklyuziv taʼlimga boʻlgan eʼtibordan kelib chiqib " Nogironligi boʻlgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatini tashkil etish chora- tadbirlari toʻgʻrisida" gi qonun tasdiqlandi (<http://lex.uz/uz/docs/-7410361>). Bu qonun 2025-yil 3-fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi boʻlgan bolalarniga ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" PQ-41-sonli qarorini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilindi.

Ulgurmuvchi oʻquvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan oʻquvchilar ham uchraydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan oʻquvchilar deganda, bosh miyaning organik shikastlanishi hamda, markaziy nerv sistemasi kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi va bilish faoliyatlarining sezilarli tarzda buzilishi tushuniladi. Ularning bilish faoliyati-intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati bosh miya kasalliklari natijasida rivojlanishi ancha kechikkan boʻladi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy rivojlanishdan orqada qolishi esa ikkilamchi hodisa boʻlib hisoblanadi.

Ruhiiy rivojlaniishi sustlashganlik tashxisini ko`plab olimlar o`rganib chiqishgan. T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lyubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A. Nikashina, K.K.Mamedov G.B.Shoumarov, N.A.Sipina, R.D.Tiger va boshqa olimlar ma'lumotlariga ko`ra boshlang`ich sinf o`quvchilarining 5-8 % ini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug`ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go`dakning ilk yoshidagi zararlanishlar kiradi. Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to`g`ri kelmasligi tushuniladi. Bu tasxish o`z vaqtida tashkil etilgan, bola ruhiyatiga mos keladigan korreksion mashg`ulotlar natijasida bartaraf etilishi mumkin.

Klinik kuzatishlar va ruhiy tekshirishning ko`rsatishicha, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda iroda-hissiyot sohasi yaxshi rivojlanmagan bo`ladi.

Bunday rivojlanmaganlik ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosiy belgisi hisoblanadi. Lekin, har qanday iroda-hissiyot sohasi yaxshi rivojlanmagan bolaga ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tasxishi qo`yilavermaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik -aqliy zaiflik va pedagogik qarovsiz bolalar tashxislari bir-biriga juda yaqin turadi, ammo, ularning alohida o`ziga xos jihatlari mavjud.

Ruhiy rivojlanishi sustlashishning aqliy zaiflikdan asosiy farqi shundaki, bunday bolalarda "Birlamchi intellekt" saqlangan bo`ladi. Bunday bolalar aqli zaiflarga nisbatan diagnostik metodlarni bajarish vaqtida yaxshi natijalarga erishganlar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bunday yaxshi natijalarga erishishi, ularda aqli zaiflarga nisbatan ma'lum darajada bilimlar borligidan darak beradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tashxisini ayrim vaqtlarda pedagogik qarovsiz bolalar tashxisi bilan ham aralashstirish holatlari kuzatiladi. Pedagogik qarovsiz bolalarda miya shikastlanishlari kuzatilmaydi, ularda ijtimiy muhitning beffarqligi yoki judayam e`tiborliligi orqasidan axloqida buzilishlar bo`lishi mumkin. Bunday bolalar bolalik paytlarida oilaviy muhit ta`sirida shunday holatga keladilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasiga ko`ra ikki guruhga ajratiladi.

1. Yengil nuqsoni bor bolalar- bunday bolalarni maxsus sharoitda 1-3 yil davomida ta`lim olganlaridan so`ng ommaviy maktabning tegishli sinflariga qabul qilsa bo`ladi.
2. Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar- bunday bolalar maktabni bitirguniga qadar maxsus maktablarda ta`lim oladilar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktablarda hamma qatori o`qitish ta`lim sifatiga ham birmuncha salbiy ta`sir qiladi.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.B.Berton, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhiy rivojlanishi sustlashganlikni pedagogik-psixologik jihatdan quyidagi turlarga bo`lganlar. 1.Konstitutsional 2.Serebral 3.Samatogen 4.Psixogen

Konstitutsional turdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitishda, avvalo, ular uchun darsda zerikmasligi uchun qulay muhit yaratish lozim va bola uchun qiziqarli metodlarni ishlab chiqish kerak. Tengdoshlariga nisbatan osonroq vazifalarni qildirish, kamroq vazifa berish ham maqsadga muvofiqdir. Bolani kichik bajarga vazifasi uchun ham rag'batlantirish uning motivini oshirishga yordam beradi.

Somatagen turdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni inklyuziv ta'limda emas, maxsus ta'lim sharoitida o'qitish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu turdagi rivojlanishdan orqada qolishda bola tengdoshlariga nisbatan anchagina orqada qolgan bo'ladi. Ya'ni u bola o'sib -unmagan xuddi go'daklardek holatda bo'ladi. Bunday bolalar psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi kabi holatlar uchraydi.

Psixogen turdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitishda ularning xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. Bu turdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning tarbiya jarayoni bola erta yoshlik paytlarida noqulay yoki noto'g'ri tashkil qilingan bo'ladi. Bu tarbiyaning salbiy tomonlar bolaning i ruhiy rivojlanishida o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu turdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xulq atvori pedagogik qarovsiz bolalarga o'xshab ketadi. Ushbu turdagi bolalarning rivojlanishidagi buzilishlari o'z vaqtida aniqlansa, nuqson bartaraf etilishi mumkin bo'ladi. Inklyuziv ta'limda bunday bolalarga mos ta'lim dasturlari orqali ta'lim berilishi natijasida ham nuqsonni bo'linmaydigan holatga keltirish mumkin. Ammo yuqorida aytib o'tganimizdek ruhiy rivojlanishi yengil nuqsoni bo'lgan bolalarni 1-3yil davomida maxsus ta'lim muassasalarida o'qitib keyin ommaviy maktablarga o'tkazish mumkin. Bunday bolalar shunday ruhiy rivojlanishi sustlashganlikning shu turiga mansub.

Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun ta'lim umumta'lim bog'cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi, yoki inklyuziv ta'limga jalb etiladi.

Xulosa qilib aytganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosan samatogen va konstitutsional turidagi bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki psixogen va serebral turdagi bolalar ma'lum muddat maxsus ta'lim sharoitida o'qitilganidan so'ng ommaviy maktablarga jalb qilsa bo'ladigan holatga keladilar. Yoki maxsus ta'limga jalb qilinmasdan to'g'ridan to'g'ri inklyuziv ta'limga olib kirilsa ham ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxsus pedagogika" M.U. Xamidova Toshkent-2018 74-94-betlar
2. Po'latxo'jayeva M.R. "Defektologiyaning klinik asoslari"-T 2012yil
2. Psychology <https://sharegoogle/z8yiR8KbgK31fRa18>
3. Lex.uz-.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq talimi tizimidagi inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.
5. (<https://lex.uz/docs/504711>)<https://ex.uz/docs/-5044711http/iffotashxis.uz/home/SinglePage/6485https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/86756>